

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

TOJIQULOV MUXTORBEB EGAMBERDI O‘G‘LI

ALYUMINIY-MAGNIY SAQLOVCHI GIBRID FTALOSIANIN
BIRIKMALAR ASOSIDA LOK-BO‘YOQ MATERIALLAR UCHUN
PIGMENTLAR OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)

Tojiqulov Muxtorbek Egamberdi o'g'li

Alyuminiy-magniy saqlovchi gibridd ftalosianin birikmalar asosida lok-bo'yoq materiallar uchun pigmentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish..... 3

Таджикулов Мухторбек Эгамберди угли

Разработка технологии получения пигментов для лакокрасочных материалов на основе гибридных фталоцианиновых соединений, содержащих алюминий-магний..... 21

Tojikulov Mukhtorbek Egamberdi oglu

Development of a technology for obtaining pigments for paint and varnish materials based on aluminum-magnesium-containing hybrid phthalocyanine compounds..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

TOJIQULOV MUXTORBЕК EGAMBERDI O‘G‘LI

ALYUMINIY-MAGNIY SAQLOVCHI GIBRID FTALOSIANIN
BIRIKMALAR ASOSIDA LOK-BO‘YOQ MATERIALLAR UCHUN
PIGMENTLAR OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5841 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tktiti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Fayziyev Jahongir Bahromovich texnika fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	Yodgorov Normuhammad kimyo fanlari doktori, professor Sottiqulov Elyor Sotimboyevich. texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.T.87.01 raqamli Ilmiy kengashning «_____» yanvar 2026 yil soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani Ibrat MFY p/b Shurobozor Tel.:(+99895)144-67-83, faks: (+99870) 965-77-16, e-mail: ooo_tniixt@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (№ 2026/01 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111116, Toshkent tumani Ibrat MFY p/b Shurobozor Tel.:(+99895)144-67-83, faks: (+99870) 965-77-16, e-mail: ooo_tniixt@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « » dekabr kuni tarqatildi.

(2026 yil « » yanvardagi 2026/01 raqamli reyestr bayonnomasi)

A.T. Djalilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof., akademik

Sh.N. Qiyomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d. k.i.x.

H.S. Beknazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d. prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda, so‘nggi yillarda ftalosianinlar sanoatning turli yo‘nalishlarida keng qo‘llanilib ular yuqori barqarorlikka ega bo‘yoqlar sifatida, samarali yarimo‘tkazgich materiallari tayyorlashda organik kompleks birikmalar ekanligi hamda ularning elektron va optik xossalarning o‘ziga xosligi ularga bo‘lgan talabning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, bu moddalarning rang turi va intensivligini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda ftalosianinlar asosidagi pigmentlarning xossalarni yaxshilash va ulardan samarali foydalanish borasida bimetall saqlagan hamda sirt yuzasi faollashtirilgan yangi poliftalosianinlar, superftalotsianinlar olish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, sintez jarayonida kompleks markazidagi metall ioni, boshlang‘ich moddalarning konsentratsiyasi, katalizator va haroratni maqsadli o‘zgartirish orqali tashqi muhit ta‘siriga chidamli yorqin rangli pigmentlar olish hamda yangi tarkibini topish va qo‘llash sohalarini kengaytirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda ishlab chiqarish sanoati rivoji va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishga katta e‘tibor qaratilmoqda va bu yo‘nalishda muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida “Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” belgilangan hamda “Mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish”¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, organik sintez asosida ftalosianin metall ionlarini miqdorini o‘zgartirish orqali yangi turdagi har xil rangli pigmentlarni olish bo‘yicha yuqori samarali texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida va 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-sonli “Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini talab qilinadigan mahsulotlar va xomashyo turlari bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2019-yil 3-aprelda PQ-4256-sonli “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsion jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlarida, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Ftalosianin pigmentlarini olish va sintezini rivojlantirish bo‘yicha ekologik toza, arzon va yuqori samarali sintez usullarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, ular asosida olinadigan mahsulotlarni o‘rganish bo‘yicha chet elda N.Ishikawa, T.Iino, J.J.Cox, S.M.Bayliss, T.S.Jones, M.Meyer, W.Freyer, M.Hanack, D.Schlettwein, S.V.Kudrevich, P.Zimcik, P.Erk, P.A.Barrett, A.A.Stepanyan, N.V.Bernashevskiy, Z.P.Kuligina, A.D.Isak, G.P.Shaposhnikov, A.V.Xromov, K.V.Zuyev, hamda O‘zbekiston olimlaridan A.T.Djalilov, A.G.Mahsumov, A.T.Tillayev, G.A.Ixtiyorova, J.B.Fayziyev va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ilmiy izlanishlari natijasida ushbu olimlar tomonidan pigmentlar olishning turli usullari, ularni olish jarayonlariga texnologik omillarning ta’siri, mahalliy xomashyolar va sanoat mahsulotlari asosida sintez qilish taklif qilingan, shuningdek, sintez qilingan birikmalarni polimer mahsulotlarga fotostablizatorlar, qurilish materiallari sanoatida lok-bo‘yoq qoplamalari, to‘qimachilik sanoati mahsulotlariga bo‘yoq sifatida ishlatish tavsiya etilgan. Hozirda mahalliy xomashyolar va sanoat mahsulotlari asosida yangi, samarali va arzon ftalosianin pigmentlarning turlarini kengaytirish maqsadida faol funksional guruhlarini o‘z ichiga olgan birikmalar bilan modifikatsiyalash, ishlab chiqarishning samarali texnologiyalarini yaratish hamda amaliyotda qo‘llash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining A-BT-2021-134 “Mahalliy xomashyolar asosida organik bo‘yovchilar ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish” (2021-2023 yy), AL-19-562206704 raqamli “Qurilish va to‘qimachilik sohasida qo‘llaniladigan termik barqaror organik, yuqori intensiv, import o‘rnini bosuvchi ftalosianin pigmentlar yaratish” (2023-2025 yy) mavzulardagi amaliy va innovatsion loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi alyuminiy va magniy konsentratsiyasini maqsadli o‘zgartirish orqali turli rangdagi ftalosianin pigmentlarini olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin komplekslarini olish jarayonida ftal angidrid, karbamid va katalizatorlar ishtirokida alyuminiy va magniy metall ionlarini maqsadli o‘zgartirish orqali turli rangdagi pigmentlar olish usullarini ishlab chiqish;

sintez qilingan alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin kompleks pigmentlarning tarkibi, tuzilishi va xossalari fizik-kimyoviy usullar yordamida tadqiq qilish;

olingan ftalosianin birikmalardan pigmentlar olinishida kislota turi va

konsentratsiyasini aniqlash hamda neytrallashtirishda agregatlanish jarayoniga uchratmaydigan ishqoriy xossaga ega modda topish, uning qo'llanilishdagi optimal miqdorini aniqlash;

turli rangdagi emallar tayyorlash uchun olingan pigmentlarning qo'llash usullarini ishlab chiqish va tayyorlangan emallarning GOST 6465-76 talablari bo'yicha mosligini aniqlash;

tarkibida alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi yangi ftalosianin pigmentlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ftal angidrid, karbamid, metall tuzlari, katalizatorlar, tarkibida alyuminiy va alyuminiy-magniy tutgan birikmalar asosida sintez qilingan ftalosianin pigmentlari olingan.

Tadqiqotning predmetini alyuminiy va alyuminiy-magniy tutgan birikmalar asosida yangi turdagi ftalosianin pigmentlarini olish jarayonining maqbul sharoitlarini aniqlash, olingan ftalosianin pigmentlari asosidagi lok-bo'yoq mahsulotlarining fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish, ularni to'qimachilik sanoatida qo'llash tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar natijasida olingan moddalarning tuzilishi va xossalarini aniqlashda zamonaviy usullari, jumladan, fizik-mexanik usullar, skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), element tahlili, infraqizil spektroskopiya (IQ-spektroskopiya), termogravimetriya (TG) va differensial skanerlovchi kalorimetriya (DSK) usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ftal angidrid, karbamid va katalizatorlar ishtirokida alyuminiy va magniy metall ionlarini maqsadli o'zgartirish orqali ya'ni ularning nisbatlari 1:1, 1:2, 1:3 va 1:4 bo'lganda turli rangdagi yangi ftalosianin komplekslarini sintez qilish usullari ishlab chiqilgan;

GOST-6220-76 talablariga mos pigmentlar olishda sintez qilingan alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalotsianinlarning 90 % li sulfat kislotada eritilishi va 20 % li natriy karbonat eritmasida neytrallashtirish optimal ekanligi aniqlangan;

PF-115 emallari tayyorlashda alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlaridan foydalanish usullari ishlab chiqilgan va tadqiqot natijalariga ko'ra, 100 kg emal tarkibi uchun 5,6 kg pigment optimal miqdor ekanligi aniqlangan;

GOST 6465-76 talablari bo'yicha tayyorlangan PF-115 emallarning antikorrozion, statik hamda dinamik mustahkamlik xossalari yuqori natijalar namoyon qilishi alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlariga bog'liqligi aniqlangan;

tarkibida alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi yangi ftalosianin pigmentlarini olishning iqtisodiy samarador va ekologik toza texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ftal angidrid, karbamid, metall tuzlari va katalizatorlar ishtirokida 5 xil tusli yuqori intensiv bimetall tarkibli alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlar olingan;

bir vaqtning o'zida metallar konsentratsiyasini o'zgartirish orqali pigmentlar tusini o'zgartirishning yangi zamonaviy iqtisodiy samarador raqobatbardosh

texnologiyasi ishlab chiqilgan;

yangi turdagi alyuminiy va alyuminiy-magniy saqllovchi ftalosianin pigmentlari asosida tashqi muhit ta'siriga yuqori darajada chidamli PF-115 emallardan lok-bo'yoq qoplamalari olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sintez qilingan birikmalar strukturasi va xossalari termogravimetrik, differensial termik (LABSYS EVO STA derivatograf), skanerlovchi elektron mikroskopiya, IQ spektroskopiya (IRTracer-100) kabi fizik-kimyoviy tahlil qilishning zamonaviy usullarini qo'llash natijalari bilan aniqlangan, shuningdek, olingan natijalarni qiyosiy tahlil asosida mahalliy ishlab chiqarish amaliyotiga mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ftalosianinlarning molekulyar tuzilishi va metall ionlari nisbati (Al:Mg) ularning rang hosil qiluvchi xossalari, gibril tizimlarda pigmentlarning rang barqarorligi, yorug'likka va issiqlikka chidamlilik kabi muhim optik-fizik ko'rsatkichlari, shuningdek, gibril komplekslarning sintez sharoitlari, reaksiyon mexanizmlari, fizik-kimyoviy tavsifi, tarkibi hamda texnologiyalarini ishlab chiqishning ilmiy asoslari yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan texnologiya asosida alyuminiy-magniy gibril ftalosianin pigmentlari qo'llanilishi natijasida PF-115 emallarning antikorrozion, statik va dinamik mustahkamlik xossalari sezilarli darajada oshirilib tashqi muhit (namlik, harorat, ultrabinafsha nurlanish va mexanik) ta'siriga chidamli yangi turdagi lok-bo'yoq qoplamalarini olish imkoniyati yaratilganligi shu bilan birga, mahalliy xom-ashyo negizida import o'rnini bosuvchi, iqtisodiy jihatdan samarali yangi pigmentlarni ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tarkibida alyuminiy va alyuminiy-magniy saqllovchi yangi ftalosianin pigmentlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

alyuminiy va alyuminiy-magniy saqllovchi ftalosianin pigmentlarini olish texnologiyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti va "SOF PAINTS" mas'uliyati cheklangan jamiyatida amaliyotga joriy qilingan ("O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi" ning 2025-yil 16-iyundagi 02/15-1963-son ma'lumotnomasi). Natijada, import o'rnini bosuvchi yuqori sifatli 5 xil rangdagi ftalosianin pigmentlarini mahalliy mahsulot sifatida qo'llash imkonini bergan.

sintez qilingan alyuminiy va alyuminiy-magniy saqllovchi ftalosianin pigmentlar asosida PF-115 turdagi turli rangdagi emallar tayyorlash texnologiyasi "SOF PAINTS" mas'uliyati cheklangan jamiyatida amaliyotga joriy qilingan ("O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi" ning 2025-yil 16-iyundagi 02/15-1963-son ma'lumotnomasi). Natijada, alyuminiy-magniy saqllovchi ftalosianin pigmentlarini qo'llash emal tarkibidagi pigment miqdorini 10 dan 5,6 kg ga kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta konferensiyada, shundan 4 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy

konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 4 ta Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 103 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obye'kt va predmeti, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, o'tkazilgan tadqiqotlarning ishonchliligi, aprobatsiyasi va natijalarning nashr qilinishi, dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tarkibida metall saqlagan ftalosianin pigmentlarini olinishi va ularning qo'llanilish istiqbollari**" deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bilan bog'liq bo'lgan bo'yoqlar tarkibi, tuzilishi hamda ftalosianin pigmentlari lok-bo'yoq sanoatida yuqori barqarorlik, yorqin rang va kimyoviy chidamlilik haqida ma'lumotlar keltirildi. Ular mis va alyuminiy komplekslari sifatida keng qo'llaniladi. Ftalotsianinlar fotodinamik terapiya, elektrokimyoviy qurilmalar va quyosh batareyalarida ham qo'llaniladi. Sintez usullari, shu jumladan ftalonitril siklotetramerizatsiyasi, keng tarqalgan usullar keltirildi. Ular yuqori optik xususiyatlar va katalitik faollik bilan ajralib turadi. Kelajakda ularning takomillashtirilishi sanoat rivojiga hissa qo'shadi. Ftalosianinining fizik-kimyoviy xususiyatlar bo'yicha ilmiy izlanishlar muhokama etilgan hamda ushbu bob bo'yicha xulosa keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlarining sintezi va tadqiqot usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotda qo'llaniladigan kimyoviy moddalarning xususiyatlari, tadqiqot usullari o'rganilgan. Tadqiqotda quyidagi moddalar ishlatilgan. Ftal angidrid-plastifikatorlar ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Karbamid azotli o'g'it sifatida qo'llaniladi, suvda yaxshi eriydi. Sulfat kislota kuchli mineral kislota bo'lib, sanoatda keng qo'llaniladi. Borat kislota kuchsiz anorganik kislota, tibbiyot va shisha sanoatida qo'llaniladi. Alyuminiy xlorid suvda yaxshi eriydi, organik birikmalarda ham eriydi. Magniy atsetat va sirka kislota tuzi suvda eriydi. Alyuminiy oksidi rangsiz kristall modda, amfoter xususiyatlarga ega. Ftalosianin sintezi hamda ushbu bob bo'yicha xulosa keltirilgan.

Alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlarini sintezi. **Alyuminiy ftalosianin pigmenti:** Ftal angidrid, karbamid va alyuminiy xlorid aralashmasi mikroto'lqinli pechda yoki yuqori haroratda qizdiriladi. Reaksiya

natijasida yashil rangli pigment hosil bo‘ladi. Materiallar va metodlar: Ftal anhidrid 1 mol, karbamid 5 mol, alyuminiy xlorid 0,25 mol va 0,0005 mol ortoborat kislotasi solib aralashtirildi. Hosil bo‘lgan aralashmani SNOL -3,5 3,5 3,5-I 3 pechida 250 °C da bir soat davomida ushlab turildi. Reaksiya natijasida gazlar va ftalimidlar ajralib chiqadi, ular sof mahsulot yaratishga xalaqit beradigan kiruvchi moddalardir. Chiqib ketayotgan gaz reaksiyaga xalaqit bermasligi va xavfsiz bo‘lishini ta‘minlash uchun pechning ustiga gaz chiqarish trubkasini o‘rnatamiz va trubka bilan bog‘langan shlangni suv idishiga botiramiz. Bu idish ichida och-ko‘k, g‘ovakli materialning paydo bo‘lishiga olib keladi. Olingan materialni 100 °C ga sovutgandan so‘ng, 20 ml 90% konsentrlangan sulfat kislotaga qo‘shiladi va aralashtiriladi, to‘q yashil eritma hosil bo‘ladi. 50 °C ga sovutilgandan so‘ng, olingan eritmaga qaynoq suv qo‘shiladi va aralashtiriladi. Eritma eriganida va yashil cho‘kma hosil bo‘lganda ajratilgan sarg‘ish-jigarrang suyuqlik ehtiyotkorlik bilan boshqa idishga o‘tkaziladi va utilizatsiya qilinadi. Cho‘kma distillangan suv bilan aralashtiriladi va vakuum nasos bilan Byuxner voronkasi orqali filtrlanadi. Alyuminiy ftalosianin, filtrlangan yashil material, quritish pechida 100 °C da ikki soat davomida quritilgan. Qurigan alyuminiy ftalotsianinni hovonchada ezib maydalab elakdan o‘tkaziladi.




1-rasm. Alyuminiy ftalosianin sintez sxemasi.

1-rasmda yuqorida keltirilgan formulaga asoslanib sintezlashda pigmentning unumi haroratga nisbatan o‘zgarishi o‘rganildi. Alyuminiy ftalosianin pigmenti sintezi uchun eng yaxshi harorat 250 °C ekanligi topildi. O‘tkazilgan tajribalarga asoslanib alyuminiy ftalosianin pigmenti 250 °C da eng yuqori natija beradi. Asosiy xususiyatlaridan pigmentning intensivligi past haroratda olinganlardan yaxshi bo‘lishi kuzatildi.

Alyuminiy-magniy ftalosianin pigmenti: Mikroto‘lqinli pechda va yuqori haroratda olingan pigmentlar sulfat kislotada eritilib, 80-90% konsentratsiyada eng yaxshi natijalar ko‘rsatdi.


Keltirilgan formulaga asoslanib sintezlashda pigmentning unumi haroratga nisbatan o‘zgarishi o‘rganildi. Alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmenti sintezi uchun eng yaxshi harorat 225 °C ekanligi topildi. O‘tkazilgan tajribalarga

asoslanib alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmenti 225 °C da eng yuqori natija beradi. Asosiy xususiyatlaridan biri pigmentning intensivligi past haroratda olinganlardan yaxshi bo‘lishi kuzatildi.



2-rasm. Alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin pigmentni sintezi.

Sintez qilib va sulfat kislota eritib olingan alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin pigmentlarining turli xil massa nisbatda alyuminiy va magniy ionlarinig turli konsentratsiyasi orqali ya'ni 1;1, 1;2, 1;3 1;4 massa nisbatda reaksiya qilib sintez qilingan ushbu 3-rasmda ko'rsatilganidek 5 xil rangli ftalosianin pigmenti olingan.



3-rasm. Alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin pigmentni turli nisbatdagi sintezi.

Dissertatsiyaning “Alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlarining tadqiqotlari natijalari va ularning muhokamasi” deb nomlangan uchinchi bobida olingan alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin sistematik tuzilishini aniqlash maqsadida termogravimetrik tahlil (TGA) va differensial skanerlovchi kalorimetriya (DTA) analizi, skanerli elektron-mikroskop va infraqizil spektr usullari yordamida analizlar olib aniqlandi. Sifatni tekshirish: Lok-bo‘yoqning quritish vaqti, shaffofligi, yorqinligi va boshqa xususiyatlari tekshiriladi. Alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlari yuqori haroratda va mikroto‘lqinli pechda sintez qilindi. Ushbu pigmentlar lok-bo‘yoq mahsulotlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yuqori sifatli va barqaror moddalar hisoblanadi.


1-jadval

Sintez qilib olingan alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentini GOST 6564-76 bo‘yicha solishtirish

№	Ko‘rsatkich nomi	Ko‘rsatkich me‘yori		AlPc Natijasi
		Oliy nav	Birinchi nav	
1	Rang berish kuchi (konsentratsiyasi),%	100	85	95
2	Ranglarning tozaligi	Standart namunaga mos keladi		Mos keladi
3	Suv va uchuvchan moddalarning massa ulushi,%, ko‘p emas	0,4	1,5	1,2
4	Nam elakdan keyin qoldiqning massa ulushi,%, ko‘p emas	0,1	0,8	0,6
5	Quruq elakdan keyin qoldiqning massa ulushi,%, ko‘p emas	0	0,5	0,4
6	Suvda eriydigan moddalarning massa ulushi,%, ko‘p emas	0,1	1,0	1
7	Suv ekstrakti reaksiyasi (rN)	5,5-7,0	5,5-7,0	6,5
8	Bosma siyohlarining suyuqligi, mm	4.9 -bandining sinoviga mos keladi		mos keladi
9	Tarqoqlik, mm:	4.10- bandining sinoviga mos keladi		mos keladi
10	Siyohlarni chop etish uchun	Migratsiyaga uchramaydi		Migratsiyaga uchramaydi
11	Polivinilxlorid uchun	Standart namunaga mos keladi		mos keladi


Alyuminiy saqlagan ftalosianin pigmentini Shimadzu spektrometridan olingan IQ (infraqizil) spektri ko‘rsatilgan. Bu grafik alyuminiy ftalosianin pigmentining turli funksional guruhlarini aniqlashda ishlatiladi.

Alyuminiy ftalotsianinida xalqalari hosil bo‘lishi 742.59 sm^{-1} yutilish sohasida ko‘rinadi, benzol xalqalari xosil bo‘lishi 646 sm^{-1} yutilish sohasida ko‘rinadi, C-H + izoindol tekislikda xosil bo‘lishi. 1288 sm^{-1} yutilish sohasida ko‘rinadi, -C-N- 1051 sm^{-1} yutilish sohasida ko‘rinadi, pirrol xalqalari 1307 sm^{-1} yutilishi sohasida ko‘rinadi, pirrol azot atomlari 1386 sm^{-1} yutilish sohasida ko‘rinadi, izoindol 1456 sm^{-1} yutilish sohasida ko‘rinadi, -N= 1521 sm^{-1} yutilish sohasida ko‘rinadi.



4-rasm. Alyuminiy ftalosianin pigmentlarini IQ-Spektri


Alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin pigmentini Shimadzu spektrometridan olingan IQ (infragizil) spektri ko'rsatilgan. Bu grafik alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin pigmentining turli funksional guruhlarini aniqlashda ishlatiladi.



5-rasm. Alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentini IQ-spektri

Alyuminiy-magniy ftalotsianinida ftalosianin halqalari hosil bo'lishi 761 sm^{-1} yutilish sohasida ko'rinadi, C-H + izoindol tekislikda hosil bo'lishi 1182 sm^{-1} yutilish sohasida ko'rinadi, pirrol halqalari 1373 sm^{-1} yutilish sohasida ko'rinadi, pirrol azot atomlari 1417 sm^{-1} yutilish sohasida ko'rinadi, izoindol 1456 sm^{-1} yutilish sohasida ko'rinadi, -N= 1508 sm^{-1} yutilish sohasida ko'rinadi.

Alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlarining termik tahlili. Ushbu analiz alyuminiy saqlovchi ftalosianin pigmentini termik barqarorligini o'rganildi. Quyidagicha xulosalar berildi



6-rasm Alyuminiy saqlagan ftalotsianin termogravimetrik tahlil (TGA) va differensial skanerlovchi kalorimetriya (DTA) analizi

Yuqoridagi termogramma termogravimetrik tahlil (TGA) va differensial skanerlovchi kalorimetriya (DSK) usullaridan foydalangan holda olingan ma'lumotlarni aks ettiradi.


Termogravimetrik tahlil (TGA): 200 °C dan keyin massa yo'qotish boshlanadi, 300-400 °C oralig'ida ikki asosiy ekzotermik hodisa kuzatiladi. Bu pigmentning parchalanishi yoki issiqlik reaksiyalari natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Differensial skanerlovchi kalorimetriya (DTA): 222.13 °C va 348.78 °C da sezilarli issiqlik effektlari kuzatilgan. AlPc pigmenti 200°C dan yuqori haroratlarda barqarorligini yo'qotadi, lekin 300-400 °C oralig'ida asosiy parchalanish bosqichlarini namoyon qiladi.

Alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin pigmentini. Reaksiya ishtirokida qo‘shimcha tozalash va neytralalash ishlaridan so‘ng yashil rangli kristalining tarkibi mahsulot hosil bo‘lganligidan va quyidagicha differentsial termogravimetrik tahlilda namoyon bo‘lganligidan dalolat beradi.

Bu rasmda alyuminiy-magnit ftalosianin pigmentining termogravimetrik (TGA) va differentsial termik (DTA) tahlil natijalari ko‘rsatilgan. Grafikni tahlil qilish orqali pigmentning haroratga nisbatan barqarorligi, massa yo‘qotish jarayonlari va issiqlik o‘zgarishlarini baholash mumkin

Alyuminiy-magniy ftalosianin ($Mg[AlPc]_2$) pigmenti: TGA va DTA tahlili: 236-408 °C oralig‘ida asosiy parchalanish bosqichlari kuzatilgan. 408 °C dan keyin qoldiq material issiqlik barqarorligiga erishadi. $Mg[AlPc]_2$ pigmenti AlPc ga nisbatan yuqori haroratga chidamli bo‘lib, 400 °C gacha o‘z tarkibini saqlab qoladi.




7-rasm. Alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmenti termogravimetrik (TGA) va differentsial termik tahlili (DTA)

Alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlarining elektron skanerlovchi mikroskop (SEM) va element tahlili.

Sintez qilingan alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlari INCA Energy 350 energodispersion mikroanaliz sistemasi bilan ta‘minlangan, MIRA 2 LMU skanerlovchi elektron mikroskopi bilan o‘rganildi.

Mikroskop tahlili berilydan plutoniygacha bo‘lgan ftalosianinlarni tahlil qilish bo‘lgan INCA energiya detektor 1 nm ruxsatda o‘tkazildi. Skanerli elektron mikroskop tahlili yuqori vakuum ostida o‘tkazildi. Alyuminiy ftalosianin (AlPc) SEM tahlili: Pigment zarrachalari 28-35 nm o‘lchamga ega. Elementar tahlil natijalari uglerod (C), azot (N), kislorod (O), oltingugurt (S) va alyuminiy (Al)


mavjudligini ko'rsatdi. Elementar tahlil: C (65.72%), N (16.75%), O (4.81%), S (1.22%), Al (10.47%). C-K (Uglerod): Bu alyuminiy ftalosianining asosiy tarkibiy elementi bo'lib, organik molekularning asosiy qurilish blokidir. N-K (azot): Azot ftorning asosiy tuzilmalarida aloqa va asosiy funksional guruh sifatida ishtirok etadi. O-K (kislorod): Bu tez-tez emas, lekin bu kislorod molekularning oksidlanishi yoki boshqa birikmalar natijasida hosil bo'ladi. Al-K Alyuminiy: Alyuminiy ftalosianining markaziy qismidir va bu tahlil K-S- (oltingugurt): Bu qo'shimcha yoki funksional guruh bo'lishi mumkin.



8-rasm. Alyuminiy ftalosianin pigmentining elektron skanerlovchi mikroskop (SEM) da analizi

Mikroskop tahlili beriliydan plutoniygacha bo'lgan ftalosianinlarni tahlil qilish bo'lgan INCA energiya detektori 1 nm ruxsatda o'tkazildi. Skanerli elektron mikroskop tahlili yuqori vakuum ostida o'tkazildi. Alyuminiy-magniy ftalosianin SEM tahlili: Pigment zarrachalari 28-35 nm o'lchamga ega. Elementar tahlil natijalari uglerod (C), azot (N), kislorod (O), oltingugurt (S), alyuminiy (Al) va

magniy (Mg) mavjudligini ko'rsatdi. Elementar tahlil: C (64.72%), N (15.75%), O (4.81%), S (1.22%), Al (10.47%), Mg (3.03%)




9-rasm. Alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin pigmentining elektron skanerlovchi mikroskop (SEM) da analizi

Dissertatsiyaning “**Alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlarining texnik-iqtisodiy samaradorligi va texnologik sxemasi**” Alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlari olishning texnologik sxemasi ishlab chiqildi. Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti MCHJ negizida alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlarining ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqildi. Alyuminiy, alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosianin pigmentlari uchun tavsiya etilgan texnologik sxemaning o‘ziga xos xususiyati va ustunligi shundaki, texnologik jarayonni uzluksiz rejimda amalga oshirish, reaktorni standart materiallardan ishlab chiqarish qulayligi, texnologik jarayonni saqlash qulayligi.

Ushbu texnologik sxemada, ftalosianin pigmenti sintez qilinadi. Boshlang‘ich xomashyolar (1,2,3,4) asosiy sintez reaktori (5) ichiga kiritiladi va kerakli kimyoviy reagentlar qo‘shiladi. Temperatura 300 °C gacha ko‘tariladi temperatura 200 °C ga yetganda ammiak, ftal imidi, karbonat anhidrid gazlari chiqishni

boshlaydi. Ushbu gaz yutish nasosi (6) orqali sovutilib yig'iladi. (7) Reaksiya 120 daqiqa davom etgandan so'ng sintez reaktor sovutilib ftalosaninni eritish va neytrallash uchun reaktor (11) ga yuboriladi. Ushbu hosil bo'lgan mahsulotimizga 90 % li sulfat kislotasi (9) orqali qo'shimcha nopokliklardan tozalash uchun yuboriladi va 30 daqiqa qoldiriladi. Hosil bo'lgan ftalosanin pigmentimizni sulfat ionlaridan tozalash uchun natriy karbonatning 20% li (8) eritmasi quyiladi va suv (10) orqali natriy sulfat ko'rinishda ertimaga utilizatsiya qilinib maxsus idishga (13) bu eritma yuboriladi. Hosil bo'lgan yashil rangli ftalosanin pigmenti quritish pechiga o'tqazilib (14) 100 °C da 240 daqiqa davomida quritiladi. Qurtilgan mahsulot maydalagichda (15) maydalanib qodoqlanadi (16).



10-rasm. Alyuminiy-magniy saqlovchi ftalosanin pigmentlari olishning texnologik sxemasi

1-karbamid uchun dozator (bunker); 2-ftal anhidrid uchun dozator (bunker); 3-alyuminiy oksidi uchun dozator (bunker); 4-magniy atsetat uchun dozator (bunker); 5-asosiy aralashtirgichli kimyoviy reaktor; 6-sirkulatsion nasos 7-gaz yutish moslamasi absorber; 8-natriy karbanat eritmasini tayyorlash bak; 9-sulfat kislotasi uchun rezervuari; 10-suv minorasi; 11-ftalosaninni eritish va neytrallash uchun reaktor; 12-ramali filtr press; 13-sulfat kislotasi eritmasi yig'ish uchun rezervuar; 14-konveksion quritish pechi; 15-valikli maydalagich; 16-oligan pigmentni qadoqlash apparati.

Yuqori haroratga chidamli lok bo'yoq mahsulatlari uchun pigmentlar olishning iqtisodiy samaradorligini ishlab chiqish.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra sintez qilingan alyuminiy, alyuminiy-magniy saqlovchi pigmentlari faol pigmentlar bo'lib, bular asosan oligomerlar va polimerlar bilan o'zaro ta'sirlashib turli sohalarda ishlatiladi. Plastmassa buyumlarga rang berishda va tashqi ta'sirga chidamliligini orshirishda, polietilen plyonkalariga stabilizatorlar, emal tayyorlashda, nashriyot-matbaa uchun

ishlatiladigan bo‘yoqlar tayyorlashda, lok-bo‘yoq qoplamalar olishda, paxta matolarni bo‘yashda va boshqa yo‘nalishlarda ishlatiladi.

2-jadval

Sintez qilingan 1 tonna Mg[AlPc]₂ pigmenti ishlab chiqarish uchun xom ashyo narxi

№	Al-Mg pigmenti	Xom ashyo narxi, so‘m	1 tonna pigmen ichidagi, xom ashyo, kg	1 tonna pigmen narxi (1000 kg)
1	Ftal anhidrid	19425	199.5	3875287
2	Alyuminiyoksid	126000	147.2	18547200
3	Karbamid	3490	346.3	1208587
4	Magniy atsetat	26000	307.4	7992400
5	Katalizator	18000	10	180000
6	Sulfat kislota	3200	462	1478400
Jami				33281874

Mg[AlPc]₂ pigmentini ishlab chiqarish uchun barcha harajatlarni ishlab chiqarish va tayyor mahsulotning bozor iqtisodiyotida 1 tonna tayyor mahsulot uchun 39424155 so‘mga teng ekanligi hisoblab topildi (3 jadval).

3-jadval

1 tonna sintez qilingan alyuminiy-magniyPc pigmentining tannarxi

1	Ko‘zda tutilmagan xarajatlar	1000000
Jami		34281874
2	Soliq 15%	5142281
Umumiy		39424155

3-jadvalda sintez qilingan Mg[AlPc]₂ pigmentini ishlab chiqarishda 1 kg tayyor pigmentning narxi 39424,155 so‘mga teng ekanligi hisoblab topildi.

4-jadvalda chetdan import qilinadigan AlClPc PR 15:1 O‘zbekistondagi 1 kg tayyor pigmentning narxi 96200 so‘mga teng ekanligi ketirilgan.

4-jadval

Sintez qilingan Mg[AlPc]₂ pigmentining tan narxi

№	Al-Mg pigmenti	Xom ashyo narxi, so‘m	1 tonna pigmen ichidagi, xom ashyo, kg	1 tonna pigmen narxi (1000 kg)	Al-Mg pigmenti
1	Mg[AlPc] ₂	Kg	1000	39424,155	39424155
Jami					39424155

Sintez qilingan Mg[AlPc]₂ pigmentini import o‘rnini bosuvchi pigment sifatida qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini hisoblash formulasi quydagicha keltiriladi:

$$E_{\text{eff}} = (Q_{\text{imp}} - Q_{\text{sin}}) \cdot S$$

Bu yerda: Q_{imp} – 1 tonna import qilinadigan AlCIPc PR 15:1 pigmentning tannarxi o‘zbek so‘mida.

Q_{sin} – 1 tonna sintez qilinadigan $\text{Mg}[\text{AlPc}]_2$ pigmentning tannarxi o‘zbek so‘mida.

S – kimyo sanoatining barcha tarmoqlarini hisobga olgan holda, kerakli pigmentning hajmi, tonna.

$$E_{\text{eff}} = (96200000 - 39424155) \cdot 110 = 6245342950 \text{ so‘m.}$$

Shunday qilib, sintez qilingan AlPc va $\text{Mg}[\text{AlPc}]_2$ pigmentini ishlab chiqarishda kutilayotgan iqtisodiy samaraga erishiladi, ko‘rilgan foyda 6245342950 so‘m yoki AQSH dollarida hisoblansa ayni kundagi dollar kursi O‘zbekistonda 1 AQSH dollari=12950 so‘m bo‘lib $6245342950 / 12950 = 482265$ dollar transport harajatlarini hisobga olmagan holda, yiliga 482265 dollar iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

XULOSALAR

1. Ftalangidrid, karbamid, metall tuzlari va katalizator ishtirokida yuqori sifatli tarkibida alyuminiy hamda alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin pigmentlari olishning maqbul sharoitlari aniqlandi, shu bilan birgalikda sintez qilish jarayonlarining texnologiyasi ishlab chiqildi.

2. Olingan alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlagan ftalosianin birikmalaridan pigmentlar olishda yuqori konsentrasiyali sulfat kislota orqali ishlov berilib, pigmentlarning α holatini maqsadli o‘zgartirib β kristall modifikatsiyasi hosil qilindi shu bilan birgalikda GOST 6220-76 talablariga to‘liq javob berishi isbotlandi.

3. Sintez qilingan alyuminiy va alyuminiy-magniy saqlagan metallorganik pigmentlarining struktura tuzilishi SEM, IQ- spektroskopiya va yuqori haroratga bog‘liq xususiyatlari derevatograf usullari yordamida taklif etildi.

4. Sintez qilingan metallorganik pigmentlarining rang intensivliklari, termik hamda kimyoviy barqaror bo‘lishi sulfat kislota konsentratsiyasi va neytrallash bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi.

5. Sintez qilingan pigmentlar lok-bo‘yoq mahsulotlariga taqqoslandi, ularning fizik-kimyoviy xossalari GOST 6465-76 standarti bilan aniqlandi va tayyorlangan PF-115 emalini asosan metall va yog‘och materiallar yuzasini muhofaza qilish uchun maqsadga muvofiq qoplama sifatida ishlatish tavsiya etildi.

6. AlPc va $\text{Mg}[\text{AlPc}]_2$ ftalosianin tarkibli metallorganik pigmentlari olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida “SOF PAINTS” dalolatnomasi va “O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasi” ning 2025 yil 16-iyundagi 02/15-1963-son ma‘lumotnomasi bilan tasdiqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.16/30.12. 2019.К/Т.87.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ХИМИЧЕСКОЙ
ТЕХНОЛОГИИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
ХИМИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ**

ТАДЖИКУЛОВ МУХТОРБЕК ЭГАМБЕРДИ УГЛИ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ПИГМЕНТОВ ДЛЯ
ЛАКОКРАСОЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ АЛЮМИНИЙ-
МАГНИЙСОДЕРЖАЩИХ ГИБРИДНЫХ ФТАЛОЦИАНИНОВЫХ
СОЕДИНЕНИЙ**

02.00.14–Технология органических веществ и материалы на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.3.PhD/T5841.

Диссертация выполнена в Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу www.tktiti.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyo.net.

Научный руководитель:	Файзиев Жахонгир Бахромович доктор философии по техническим наукам (PhD), старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	Ёдгоров Нормухаммад доктор химических наук, профессор Соттикулов Элёр Сотимбоевич. доктор технических наук, старший научный сотрудник
Ведущая организация:	Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится « ____ » января 2026 г. в « 9⁰⁰ » часов на заседании Ученого совета DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 при Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии по адресу: 111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, ул. Шурабазар, тел: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии за № 2026/01, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, п.о.Шурабазар, тел: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Автореферат диссертации разослан « » декабря 2025 года.

(протокол рассылки № 2026/01 от « » января 2026 года).

А.Т. Джалилов
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.х.н., проф., академик

Ш.Н. Қиёмов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., с.н.с.

Х.С. Бекназаров
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (реферат диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В последние годы фталоцианины нашли широкое применение в различных отраслях промышленности по всему миру в качестве красителей с высокой стабильностью, в качестве органических комплексных соединений при получении эффективных полупроводниковых материалов, а их уникальные электронные и оптические свойства обусловили рост спроса на них. Поэтому большое внимание уделяется внедрению инновационных технологий производства, позволяющих управлять типом и интенсивностью окраски этих веществ.

В мире проводятся научные исследования по улучшению свойств пигментов на основе фталоцианинов и их эффективному использованию для получения биметаллических полифталоцианинов, суперфталоцианинов и нового поколения с активированной поверхностью. В связи с этим особое внимание уделяется получению ярко окрашенных пигментов, устойчивых к воздействию внешней среды, путем целенаправленного изменения концентрации ионов металлов в центре комплекса, исходных веществ, катализатора и температуры в процессе синтеза, а также поиску и расширению областей применения нового состава.

В настоящее время в нашей стране уделяется большое внимание развитию производственной промышленности и реализации мероприятий по охране окружающей среды посредством внедрения инновационных технологий, и в этом направлении достигаются конкретные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены "Приоритетные направления развития экономики" и важные задачи по "дальнейшему ускорению производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местных сырьевых ресурсов, созданию качественно новой продукции и технологий"¹. В этом направлении, особенно в целях развития химической промышленности, являющейся одной из ведущих отраслей национальной экономики, очень важное значение имеет разработка высокоэффективных технологий получения новых видов разноцветных пигментов путем изменения количества ионов металлов фталоцианина на основе органического синтеза.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы", Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-436 от 2 декабря 2022 года "О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к "зеленой" экономике до 2030 года", № ПП-3479 от 17 января 2018 года "О мерах по стабильному обеспечению отраслей экономики страны

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

востребованными видами продукции и сырья", № ПП-4256 от 3 апреля 2019 года "О мерах по дальнейшему реформированию и повышению инвестиционной привлекательности химической промышленности", а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII "Химические технологии и нанотехнологии".

Степень изученности проблемы. Целью исследований является разработка экологически чистых, недорогих и высокоэффективных методов синтеза для получения и синтеза фталоцианиновых пигментов, продукты, полученные на их основе, изучались за рубежом Н. Ишикавой, Т. Иино, Дж. Дж. Коксом, С. М. Бейлиссом, Т. С. Джонсом, М. Мейером, В. Фрейером, М. Ханакон, Д. Шлеттвайном, С. В. Кудревичем, П. Зимчиком, П. Эрком, П. А. Барреттом, А. А. Степаняном, Н. В. Бернашевским, З. П. Кулигиной, А. Д. Исаком, Г. П. Шапошниковым, А. В. Хромовым, К. В. Зуевым, а также узбекскими учеными А. Т. Джалиловым, А. Г. Махсумовым, А. Т. Тиллаевым, Г. А. Ихтиёровой, Ж. Б. Файзиевым и другими учеными.

